

Abdulla Oripov “Vatan mehri” she’rida so‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari

Asilbek Sherali o‘g’li Jo’rayev
ToshDO’TAU

Annotatsiya: Ushbu maqolada taniqli shoir Abdulla Oripov ijodida mahorat bilan qo‘llangan so‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: sinonim, omonim, antonim, kontekstual antonim, paronim

Abdulla Oripov types of words in the poem “Vatan mehri” according to the relationship of form and meaning

Asilbek Sherali oglu Jorayev
ToshSUULL

Abstract: This article talks about the types of words skillfully used in the work of the famous poet Abdulla Oripov, according to the relationship of form and meaning.

Keywords: synonym, homonym, antonym, contextual antonym, paronym

Iste’dodli va juda yetuk tafakkurli shoir, olim va jamoat arbobi, nafaqat o‘zbek she’riyatida, balki jahon adabiyotida ham o‘zining munosib va o‘chmas o‘rnini egallagan daho insonlardan biri bu Abdulla Oripovdir. Shoir nazmiy shaklda ifodalangan asarlarida badiiy tasvir vositalaridan, so‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlaridan ustaomonlik bilan foydalangan. Hammamizga ma’lumki, tilimizdagи so‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlaridan foydalanish badiiy asarning qimmatini oshiradi. Shuningdek asarning mazmunli qiziqarli bo‘lishini ham ta’minlaydi. Tilimizdagи so‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlaridan shoir Abdulla Oripov ham mahorat bilan foydalangan.

Xalqimizning sevimli va buyuk shoiri bo‘lmish A.Oripovning ushbu she’ri tahlili bilan ham tanishsak.

Xastalikka yo‘liqdim Vatanimdan yiroqda,
Vayron bo‘ldi ming karra shundoq ham vayron ko‘nglim.
Dengizu tog‘lar osha, goh yayov, goh *uchqeda*
Meni ko‘rgani kelding, Bibisora, jon singlim.
Ushbu satrlardagi bu kki so‘z o‘zaro ma’no zidligini yuzaga keltirmoqda.

Ellik yil ayro tushgan ikki jigarband misol
 Aka-singil yig'lashdik, yelkalarga qo'yib bosh.
 Shu lahza onam *ruhi* charx urardi ehtimol,
 Balki otam *arvohi* tilardi bizga bardosh.
 Ushbu to'rtlikda bu ikki so'z rux va arvoh sinonim so'zlar sifatida kelgan.
 Noshukurlik yomondir, yashadim-ku harqalay,
 Qayga borsam, muxlislar bizniki deb atashdi.
 Biroq o'tgan yillarning fe'lin ham aytib o'tay:
Avvalo qo'rqtidilar, *so'ngra* esa talashdi.
 Bu yerda avvalo va so'ngra zid ma'noda kelgan va antonimlardan foydalanilgan.
 Boylik va amal topish *qiyin* emas dunyoda,
 Jindek chaqqonlik bilan ustakorlik bo'lsa, bas.
Dushman-ku poylab turar har o'ru har qiyoda,
 Faqatgina chin *do'stni* uchratmoq *oson* emas.
 Ushbu to'rtlikda antonimlar 4 ta. Ular: *qiyin*, *oson*, *dushman* va *do'st*.
 Men ham bir do'st axtarib, shamol misoli yeldim,
 Goho topdim, gohida topolmay chekdim alam.
 To'rt muchaning qadrini yoshim o'tganda bildim,
 Jarohat topdim goho tuyaning ustida ham.
 Donishmandlar hayotni aslida sinov deydi,
 Bu hikmatni har inson o'zicha anglar biroq.
 Tiriklikda sobit bir mantiq bo'lsa qaniydi,
Bo'rilar qolib ketib, qo'yni sinashar ko'proq.
 Ushbu to'rtlikda bo'ri va qo'y so'zlari o'zaro zid ma'noda kelmoqda.
 Sog'ayib, safingizda yurarman hali men ham,
 Oshno bo'lib she'r degan abadiy bir *sehrga*.
 Yolg'iz Xudoga soldim, gar birovdan yetsa g'am,
 Lekin mudom talpindim insoniy bir *mehrga*.
 To'rtlikda mehr va sehr so'zlari paronim sifatida kelgan. Qofiyadoshlikni
 ta'minlagan.

Kim bo'libman axir men, mehrga zor-ku *bashar*,
 Chulg'ab olmish olamni zo'ravonlik va aqcha.
 Oddiy bir to'pteparga qiyoslab ko'rsang agar,
 Gomer va Tolstoyning narxi bo'larkan qancha?!

Ha, *odam bolasi* bu, qon qaqqshatar dillarni,
 Qo'li hech bo'shamaydi ig'vo bilan urushdan.
 Ko'rdim afsus dunyoda hatto shundoq ellarni,

Zavq oladi o‘z birin *toptab*, *yerga urishdan*.

Bashar va odam bolasi insoniyatning umumiyligi atalishlaridan biri. Bu ikkalasi sinonim so‘zlardir. Toptamoq va yerga urish esa bitta ma’noli sinonimik frazema.

Sen Vatanim mehrini keltirding, Bibisora,

Endi oyoqqa turgum sog‘-omon, o‘ynab-kulib.

Bilib qo‘y, bu mehrni topib bo‘lmaydi sira,

Inchunin, u ko‘ringay gohida singil bo‘lib. (*Vatan mehri*).

Bunday misollarni yana ko‘plab keltirish mumkin. She’riyat va nasrda ham bunday misollar nihoyatda ko‘p.

Xulosa

Xulosa qilib shularni aytishim mumkin-ki so‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlaridan foydalanish she’ritda ayniqsa juda muhim. Chunki, ulargina she’rda ma’no va mazmunini kuchaytiradi, qofiyadoshlikni shakllantiradi va o‘quvchida asar o‘qilish jarayonida ham uni zariktirib qo‘ymaylis vazifasini ham bajaradi.

Bundan tashqari aynan ulargina she’riyat asosi ham o‘ylayman. Asosiy musiqiylik va qofiyani ham aynan ular shakllantiradi. Ularsiz bu sohani tasavvur etib bo‘lmaydi. Abdulla Oripov ijodi o‘zining sermazmunligi va xalqchilligi bilan ham anchayin mashhur. Bu she’rlar orqali juda ko‘plab ma’nolarni topish va kashf etish mumkin. Bunday she’rlardan biz yuqorida qidirgan manbalarni ko‘plab topish mumkin. Bu ijodkorning ijodiga murojaat etishimizning asosiy sababi ham shunda.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. HAMID OLIMJON IJODIDA SO‘ZLARNING SHAKL VA MA’NO MUNOSABATIGA KO‘RA TURLARI (MAQOLA) JDPU O‘zbek tili va dabiyoti fakulteti 3-kurs talabasi Sh.Yodgorova.